

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.O.Baltabayeva, O.A.Komiljonova

Franshizalarni ochish va ular bilan samarali ishlash - biznesni rivojlantirishning omili sifatida 6

A.Y.Toyirov S.R.Shodiyev

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoatining o'ri 9

A.Y.Toyirov

Hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda infratuzulmaning o'ri 16

FALSAFA

A.A.Qambarov

Abdulla Avloniy o'zbek millatining ma'rifatparvar ziyolisi..... 21

G.T.Kabulniyazova

Uyg'onish davri falsafasining mashhur vakili Nikolay Kuzanskiyning panteistik ontologiyasi 27

X.N.Xolmirzaev

Sun'iy intellekt tizimlarida ijtimoiy me'yorlar va inson qadriyatlarining ahamiyati..... 32

S.S.Evatov

O'rta asr sharq faylasuflari ta'limotlaridagi gnoseologik va teologik qarashlarning qiyosiy tahlili 37

I.A.Asatulloev

Erk fromm ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida inson tabiati deformatsiyasi..... 40

B.X.Tolipov

Yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom axloqiy-iqtisodiy raqobat asosida rivojlantirishning falsafiy jihatlarini 46

Sh.Q.Oxunova

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirishning sinergetik strategiyasi 50

M.K.Soipova

Fazl Ibn A'xmadning ontologik qarashlari..... 54

L.K.Axatov

Irfoniy qarashlarning falsafiy mazmun-mohiyati (mutafakkirlar asarlarining tahlili asosida) 59

J.A.Mamanov

Yoshlarda ma'naviy madaniyatni yuksaltirishning milliy va umuminsoniy tamoyillari 63

I.I.Umrzakov

Xalq musiqa ijodiga doir falsafiy-madaniy yondashuvlar..... 70

Sh.A.Ismailov

Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy himoya va ijtimoiy siyosat yuritishning asosiy omillari 74

R.S.Raupova

Abu Ali Ibn Sinoning ma'naviy-axloqiy qarashlarining mamlakatimiz rivojida tutgan o'ri 78

M.A.Rahmonova

Abdurauf Fitrat ma'naviy-axloqiy qarashlarini yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'ri 84

D.V.Vohidova, O.L.Berdiyev

Turkiy tasavvufning buyuk namoyandasi..... 92

B.B.Dehqonov

Yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini qurishda Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi bag'rikenglik g'oyalarining o'ri va ahamiyati 96

A.Z.Sharipov

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi-yurtimizda inson qadrini oshirish hamda ma'naviy salohiyatni yuksaltirishdagi islohotlar asosi sifatida..... 102

L.B.Ikromova

Zamonaviy o'zbek falsafasida gnoseologik muammolarning yoritilishi..... 107

A.X.Amonlayev, M.Y.Sultonov

Islom qadriyatlarida shaxs ma'naviyati haqidagi qarashlarning gumanistik mohiyati 111



UO'K: 101.1

**YANGI O'ZBEKISTONDA MA'RIFATLI JAMIYATNI SHAKLLANTIRISHNING
SINERGETIK STRATEGIYASI****СИНЕРГЕТИЧЕСКАЯ СТРАТЕГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОСВЕЩЕННОГО
ОБЩЕСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ****SYNERGISTIC STRATEGY FOR FORMING AN ENLIGHTENED SOCIETY IN THE NEW
UZBEKISTAN****Oxunova Shaxnoza Qodirovna** 

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqolada Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari, Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirishning ijtimoiy falsafiy jihatlari, Yangi O'zbekistonda ma'rifatlilikni yuksak axloqiy qadriyat sifatida shakllantirishning istiqboldagi vazifalari o'rganilgan. shuningdek, Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirishning sinergetik strategiyasi tahlil qilingan.

Аннотация

В статье исследуются теоретико-методологические основы формирования просвещенного общества в Новом Узбекистане, социально-философские аспекты формирования просвещенного общества в Новом Узбекистане, перспективные задачи формирования просвещения как высокой нравственной ценности в Новом Узбекистане. также проанализирована синергетическая стратегия формирования просвещенного общества в Новом Узбекистане.

Abstract

The article studies the theoretical and methodological foundations of the formation of an enlightened society in New Uzbekistan, the socio-philosophical aspects of the formation of an enlightened society in New Uzbekistan, the future tasks of the formation of enlightenment as a high moral value in New Uzbekistan. Also, the synergistic strategy of the formation of an enlightened society in New Uzbekistan is analyzed.

Kalit so'zlar: *ma'rifatli jamiyat, ijtimoiy qonuniyatlar, ma'rifatlilik, axloqiy qadriyat, ijtimoiy-falsafiy tahlil, sinergetik strategiya, dialektik, jamiyat taraqqiyoti, ma'rifiy islohotlar, stereotip, innovatsion mexanizm.*

Ключевые слова: *просвещенное общество, социальные законы, просвещение, нравственная ценность, социально-философский анализ, синергетическая стратегия, диалектика, общественное развитие, просветительские реформы, стереотип, инновационный механизм.*

Key words: *enlightened society, social laws, enlightenment, moral value, socio-philosophical analysis, synergistic strategy, dialectic, social development, enlightened reforms, stereotype, innovation mechanism.*

KIRISH

Bugun ma'rifatlilikni ijtimoiy taraqqiyotga ta'sirini tadqiq etish dolzarb vazifalardan biridir. Jamiyat taraqqiyoti o'zaro dialektik bog'langan o'zgarish, rivojlanish va takomillashish jarayonlaridan iborat bo'lib, har bir rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlasak, ular bu jarayonlarni boshdan o'tkazib, mustahkam iqtisodiy asosni yaratganligini ko'rish mumkin. O'zbekiston ham bu jarayonlarni birma-bir o'tkazib, kuchli davlatlardan biriga aylanishida birinchidan, jamiyatda ta'limga munosabat, yondashuv, moliyalashni tubdan yangilash, sifat samaradorligiga erishishga alohida e'tibor qaratishi darkor. Ijtimoiy transformatsiyaning mazmuni shundan iboratki, jamiyatda sifatli o'zgarishlar sodir bo'lishi sotsial tizimning ma'lum darajadagi boshqa faoliyat sifatidagi milliy tizimga o'tishi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jamiyatda ma'rifatlilikni rivojlantirish masalalari xorijlik mualliflarning tarixiy hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlarida faol tadqiq etilgan. Jumladan, alohida olingan bir davlatda ijtimoiy taraqqiyotga ta'limning innovatsiyalari, mintaqaviy ta'limning tashkiliy tuzilmasi, bilimlarning transformatsiyada kadrlar va oliy ta'limning taraqqiyotdagi roli, uning sifatini yuksaltirishi tamoyillari, Yevropa ta'lim tizimining kadrlar tayyorlashda umumiy dastur qabul qilish hamda hamkorlik, ta'limga madaniy

FALSAFA

tushunchalarni joriy etishga doir tadqiqotlarini guruhlashtirish mumkin. O'zbekistonda ijtimoiy taraqqiyotning falsafiy jihatlarini barqarorlik, ta'lim tizimining liberallashtirish, iqtisodiy yoki huquqiy ongga taraqqiyot ta'siri masalalari faylasuf, siyosatshunos, iqtisodchi va jamiyatshunos olimlar tomonidan o'rganilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev yurtimizda zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirishda "o'z oldimizga qo'ygan ko'p qirrali va murakkab vazifalarni amalga oshirish zamonaviy va kreativ fikrlaydigan, har qanday vaziyatda ham mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, g'ayrat-shijoatli, intellektual salohiyati yuksak, vatanparvar yosh kadrlarga davlat va jamiyat boshqaruvida muhim vazifalarni" ishonib topshirishni ko'zlagan. Jamiyat taraqqiyoti va ta'lim muammolari salohiyatli va raqobatbardosh kadrlarning boshqaruvdagi ishtiroki bilan belgilanib, zamonaviy ta'limning tarbiya bilan bog'liq holda muammolarini tushungan holda vaziyatni ijobiy hal etishga qobiliyati muhimdir. Biz ta'lim yoshlarning jamiyatlar taraqqiyoti va tanazzulini belgilab berishidan, ularga etakchi intellektual yoshlarning ilmiy elitasini shakllantirish orqali inqilob va buyuk o'zgarishlarni yasashimiz mumkin. Shu ma'noda biz ta'limga inson shaxsiyatini kashfiyoti, yoshlarning milliy identivligini anglash, borliqni idrok qilish, jamiyatni farovonlik omili, deb hisoblaymiz. Fikrimizni ta'limning umuminsoniy qadriyatning bir qismi ekanligidan, shaxsning tayanch ehtirosi milliy genetik shakllangan tabiiy tarixiy hodisa hamdir. Shuning uchun ham "yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoyasini kuchaytirish, ijtimoiy-siyosiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish, milliy o'zlikni anglash, yuksak ma'naviyatni shakllantirish yo'nalishlarida tizimli ishlarni amalga oshirilmoqda". O'zbekiston hukumati mazkur muammo va uning echimida davlat va nodavlat ta'lim tizimini, jamoatchilikning faol ishtirokida ta'lim manfaatlarining muhofazasi, yoshlarning kayfiyati va ijtimoiy mo'ljallariga jiddiy ta'sir etishini hisobga oladi. Bu hol o'z navbatida ta'limning ijtimoiy taraqqiyotni shakllantirish omillarini aniqlash, mlliy taraqqiyotga doir muammolar bilan professional ta'limning ijtimoiy zaruratini falsafiy asoslash ham muhim vazifalardan biridir.

Jamiyatning ma'rifatliligi ijtimoiy taraqqiyotni yuzaga keltiruvchi omil bo'lsa, ijtimoiy taraqqiyot ta'limni professionallik darajasining mezonini hisoblanadi. Demak, ijtimoiy taraqqiyot va ta'lim – mushtarak rivojlanuvchi, bir birini to'ldiruvchi, bir biridan ko'mak oluvchi jarayon. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Qozog'iston elboshisi Nursulton Nazarboyevning barqaror va inklyuziv iqtisodiy taraqqiyotga erishish, o'zaro manfaatli hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan musulmon davlatlari o'rtasida infratuzilmalar bo'yicha integratsiyani tashkil etish" haqidagi tashabbusini qo'llab quvatlagan.

Ijtimoiy taraqqiyot tadrijiy takomillashuvi va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarining tahlili ta'lim tizimining evolyutsiyasini nazorat qilish imkonini beradi. Chunki, tarixiylik tamoyilida ta'lim va jamiyatlar taraqqiyotining o'zaro aloqadorligini kuzatish mumkin. Tajriba ta'limning qat'iy va yopiq tizimi muayyan mamlakat davlat tuzumining muhim tarkibiy qismi bo'lsa, yangi asr boshida insoniyat turmushining sifat ko'rsatkichi, taraqqiyot va alohida shaxs darajasining farovonlik indeksida ham namoyon bo'ladi. Mazkur ishlar natijasida "ta'limning jadal sur'atlarda rivojlanishi, uni inson va jamiyatni rivojlantirishning muhim omillaridan biriga aylantirdi" va ijtimoiy taraqqiyotni keltirib chiqaradi.

O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro tashkilotlar tomonidan ta'lim tizimini tartibga solish, butun dunyoda ta'lim olishning huquqiy asoslarini ishlab chiqish jarayoni boshlandi. Jumladan, BMT tomonidan butun dunyoda ilm-fan, ta'lim-tarbiya va ijtimoiy hayotni rivojlantirishga qaratilgan alohida bo'lim faoliyatini yo'lga qo'yilishi ham muhim qadamlardan biri bo'ldi. BMT tomonidan qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» har bir insonning ta'lim olish huquqi o'rnatildi. Natijada, ta'lim olish huquqi butun dunyoda kafolatlanib, har bir mustaqil davlatda ta'lim olish huquqi konstitutsiyaviy huquqqa aylantirildi. Ta'lim jamiyat taraqqiyotining asosi, uni harakatga keltiruvchi, yuksak maralarga olib chiquvchi omil ekanligi namoyon bo'la boshladi. Shu bois, ta'lim sohasida har qanday kamsitish inson huquqlarini buzish, deya baholanadigan bo'ldi.

Ta'lim jamiyatda ijtimoiy dunyoqarashni rivojlantirib, odamlarning savodxonlik darajasini oshiradi, ishsizlikni kamaytirib, aholining ehtiyojmandlik darajasini kamaytirdi. Umuman hisobda, jamiyatning bilimlilik darajasi ijtimoiy taraqqiyotga asos bo'lishi, savodxonlik yuqori bo'lgan "mamlakat ishlab chiqarish, aholi bandligi borasida nisbatan kengroq imkoniyatlarga ega bo'ladi. Bunday mamlakatlarda odatda ishsizlik va ishga layoqatli aholining ish izlab boshqa davlatlarga borish darajasi past. O'qimishli odamning ma'lumotsiz odamga qaraganda ish topishi osonroq.

Barcha mamlakatlarda ishsizlik darajasi har doim ma'lumoti past yoki yo'q aholi orasida yuqoridir". Shu bois mehnat bozorida ishsizlik yoki ishga etarli maosh to'lamaslik talabgorning ma'lumoti va kasbiy layoqati bilan belgilanib, barcha ijtimoiy muammolar bilimsizlik, ta'lim saviyasining pastligi bilan izohlanadi.

Ta'lim sog'liqni saqlash, uzoq umr ko'rish, tibbiy xizmatdan foydalanish, sog'lom turmush tarzi va madaniyatida o'z ifodasini topadi. Sifatli ta'lim tibbiyotni samaradorligini shakllantirib, aholining uzoq va salomat yashashiga ta'sir ko'rsatadi. Natijada, aholining salomatlik darajasi ortib mamlakatda aholining uzoq umr ko'rishini erkaklar 67, ayollarning 73 yoshdan ortishi halqaro indekslarda ijobiy ko'rsatkich sanaladi". Shu bois, ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash jamiyatni yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqish aholi sog'lomligi bilan professional tibbiy xizmatni talab etadi.

Tarixga nazar tashlasak, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida ta'lim iqtisodiy yuksak marralarni zabt etishda ta'lim, ilm-fanni qo'llab quvvatlash, ularga alohida e'tibor qaratish orqali erishilgan. Shu ma'noda biz M.Temirovaning "...ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilm-u ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamolot va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi, deb bilgan.

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining uzoq muddatli trendlarida ta'lim darajasini oshirish tahlili uzviy bog'liqlik borligi, davriy trendda ta'lim darajasining indeksleri namoyish etiladi. O'tgan asrda mustamlakachilik va talonchilik urushlari tufayli mamlakat vaqtinchalik boy bo'lishi mumkin edi. Demak, davlatga vaqtinchalik boy va iqtisodiy rivojlangan bo'lishning asosida nafaqat tabiiy boyliklar, qishloq ho'jaligi kabi omillar bo'lsa, barqaror iqtisodiy taraqqiyotning zamirida sifatli ta'lim, ilm-fan, innovatsiyalar yotadi. Shu bois "bugungi kunda dunyo miqyosida shafqatsiz raqobat tobora keskin tus olmoqda. Bunday murakkab sharoitda zamonaviy ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish bo'yicha biz ta'limda ota-onalarning ishtirokini baxtli kelajak" bilan bog'lash fikrini qo'llab quvvatlaymiz.

Ayrim hollarda olimlar mamlakat naqdlashgan tabiiy resurslari narxining oshishiga tayanib, "zamonaviy globallashuv va o'sib borayotgan xalqaro raqobat sharoitida xom ashyoni sotish hisobiga kelgan boylik, agar u aholining oshib boradigan bilim darajasi, egallagan bilimni iqtisodiyotga samarali yo'naltirish orqali qo'llab-quvvatlanmasa, uzoqqa cho'zilmaydi, degan xulosaga kelgan. Demak, ta'lim orqali jamiyatning bilimlilik darajasini oshishi ularning turmush tarziga va madaniy hayotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu hol fuqarolik jamiyati rivojida ijtimoiy taraqqiyotning kadrlar tayyorlash tizimiga ko'p jihatdan bog'liq deb hisoblaymiz.

Bugungi kunda yangi texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy tovarlarni ishlab chiqarish, aloqa qobiliyatining o'sishi ayrim ish turlarini barham topishi yoki o'zgartirish uchun sharoit yaratadi. Shu munosabat bilan xodimlarning kasbiy vakolatlarini doimiy ravishda takomillashtirish zarurati, ularning kasbiy professionallashuvi o'sib borishini talab etadi. Chunki mehnatjarayonida (30-40 yosh) faqat kollej yoki universitetda o'qish zamiridagi bilimlar zaxirasidan foydalanish mumkin emas. Zero, "Jamiyatni intellektual rivojlantirish - bu ijtimoiy taraqqiyot asosidir. Busiz ilmiy-texnik taraqqiyotga erishishning imkoni yo'q, insonning global manfaati-jamiyatning barqaror hayotini ta'minlaydigan kashfiyotlarni amalga oshirib bo'lmaydi, degan qarashlar bilan hamfikrmiz. Shu sababli, kasb-hunar ta'limi jarayoni o'z vaqtida uzoqroq va kasbiy rivojlanishning turli bosqichlarini, shuningdek, ta'lim faoliyati mazmuni jihatidan kengroq, shu jumladan tashkilot doirasida kadrlar tayyorlash uchun tashkiliy-pedagogik sharoitlar yaratish, malaka oshirish va qayta tayyorlashning turli shakllarini qamrab oladi. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida ijtimoiy taraqqiyot boshqaruv organlarining ochiq, adolatli va qonuniylik prinsiplari asosida ishlashlariga ham bog'liqdir.

O'zbekistonni "yangilash va modernizatsiya qilish, jamiyatimizning barcha jabhalarini erkinlashtirish, xalqimizning hayot darajasi va turmush sifatini yanada yaxshilash, mamlakatning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yuksaltirish bilan bog'liq g'oyat dolzarb, kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar" uzoq yillar davomida yuzaga kelganligini olimlar tan olganlar". Shu bilan birga boshqa davlat organlari va boshqaruv idoralari faoliyatini ham modernizatsiya qilish jamiyat rivojidagi muhim omil hisoblanadi. Muammoning ikkinchi jihati, iqtisodiy aloqalarning globallashuvi va baynalmilallashuvi jarayonida xorijiy kapital ishtirokida qo'shma korxonalar faoliyati bilan izohlash mumkin. Shu bilan birga, mamlakatlar o'rtasida yuqori darajadagi raqobat kuchayib, musobaqada uzoq muddatli va uzluksiz ta'lim dasturlarini olib borganlar etakchilik qiladi. Bu hol yuksak malakali kadrlar tayyorlash, mehnat unumdorligini ta'minlash orqali jahon bozori talablariga javob berishni taqozo etadi. Tarixiy tajriba bashariyatning taraqqiyoti "farovon yashashning imkoniyatlarini izlab topgan va ulardan samarali foydalanishga intilib kelgan. U oddiy mehnat qurollaridan foydalanishdan

FALSAFA

boshlab to bugungi kunning zamonaviy talabi darajasidagi yuqori texnologik asbob-uskunalar hamda jarayonlarni yaratish hamda ulardan o'z farovonligini ta'minlashda samarali tarzda foydalanishgacha bo'lgan murakkab davrni bosib o'tdi". Shu jarayonlarning natijasi sifatida inson ongu-shuuri rivojlanib bordi va bu ijtimoiy taraqqiyotni bugungi qiyofaga keltirdi.

XULOSA

Biz ishlab chiqarish va biznes sohalaridagi bandlik o'zgarishlari milliy iqtisodiyotda ishchilarni kasbiy o'qitishning doimiy ravishda o'zgaruvchan dinamikasi mehnat bozori va jiddiy demografik o'sishda malakali xodimlarning salohiyati ham uchinchi bir omil bo'lishini yodda tutmoqdamiz. Ayni vaqtda O'zbekistondagi tijorat tashkilotlari o'zlarining shakllanish bosqichidagi qiyinchiliklarni engib, barqarorlashish bosqichiga kirib, etarlicha yuqori inson kapitaliga ega bo'lib olgan. Rivojlanishning barqarorligi ko'pincha bozorning dinamikasi bilan ziddiyatga uchraganligi sababli, tashkilotning rivojlanishi va faoliyatida tubdan o'zgartirish zarur bo'lganida, o'zgargan bozor sharoitlariga muvofiq, shoshilinch ravishda korporativ treningga ehtiyoj sezadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир . 2-жилд. – Тошкент.: Ўзбекистон. 2018. –Б. 491.
2. Мирзиёев Ш. М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Тошкент.: Ўзбекистон. 2019. – Б. 212.
3. Гафарали М. С., Касаев А.Ч. Ривожланишнинг тинчлик ва барқарорлик модели –Тошкент.: Ўзбекистон. 2001. –Б.113 – 151
4. Нарбаева Т. К. Ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишда касаба уюшмаларининг ўрни // Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишнинг долзарб муаммолари –Тошкент.: Ўзбекистон. 2008. – Б. 13.
5. Невелов А. Б. Человек: становление духовной индивидуальности (философское обоснование образовательной деятельности) // Вестник лаборатории МНОО. – 1995. – № 2. -С. 163
6. Отамуратов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти. – Тошкент.: Ўзбекистон. 2018. – Б. 137
7. Усмонов Б. Ш., Қодиров М. К. Юқори малакали рақобатбардош кадрлар тайёрлаш: ютуқлар, муаммолар, ечимлар // Таълим, фан ва инновация, 2016. – № 2 – Б. 10.
8. Эшонкулов Н. Озодлик масъулияти ёки миллат уйғоқлиги// Хуррият –Тошкент.: 2015. – 8 июль
9. Ўзбекистонда таълим: талаб ва таклиф мутаносиблиги / Саидова Г. – Тошкент.: Ўзбекистон. 2008. – Б. 10.
10. Куронов М. Болам бахтли бўлсин десангиз. –Тошкент.: Маънавият. 2013. –Б. 47. (-320 б.)